Karimova Moxichexra Rixsibaevna
Toshkent shahar Yangihayot tumani 50-DMTT direktori

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining texnologik kompetentligi, pedagogik mahoratini shakllantirishning yangi zamonaviy yo'nalishlari tahlil qilib berilgan bo'lib, bu yerda bugungi davr tarbiyachisidan talab etilayotgan bilim, ko'nikma va mahoratning darajalari, indikatorlari va mezonlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berildi.
Kalit so'zlar: Kompetensiya, Texnologik kompetensiya, Texnologik kompetentlik, Innovatsion faoliyat, Pedagogik mahorat, Ma'naviy-estetik tarbiya, Kommunikativ qobiliyat, Axborot madaniyati, Muloqot.

Butun dunyo ta'lim tajribasi, ilm-fan va madaniyatning yangi darajasiga mos ta'lim qadriyatlari bilan rivojlanib borishi kerak. Bunga ko'plab muhim omillar bugungi ta'lim jarayonini rivojlanib borishiga yordam beradi.

Xususan, Respublikamizda maktabgacha ta'lim jarayoni sifatini oshirish, maktabgacha ta'limda tarbiyachilarning kompetentligini shakllantirish, maktabgacha ta'lim jarayonini rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish kasbiy faoliyat mazmunini modernizatsiya qilishning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bu borada Pedagogika kollejlarida o'qitilayotgan bo'lajak tarbiyachi o'quvchilarning texnologik kompetentligini shakllantirishning ilmiy-nazariy tahlili, bo'lajak tarbiyachilarda texnologik kompetentligini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, didaktik shart-sharoitlar mazmunini yanada rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

Kompetensiya - bu shaxsning tegishli qobiliyatga ega bo'lishi, ega bo'lishi, shu jumladan voqelik sub'ektiga shaxsiy munosabati hisoblanadi. Tarbiyachilarning texnologik kompetensiyasi zamonaviy jamiyatda shaxsni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning zarur shartidir. Shuning uchun biz texnologik kompetensiyani tarbiyachining amaliyotga yo'naltirilgan ishlab chiqarish jarayonlarida (bog'chada) bilim, ko'nikma, malakalar tizimidan aniq vaziyatlarda samarali foydalanish jarayoni sifatida baholaymiz.

Maktabgacha ta'limdagi texnologik yondashuv pedagogika kollejlarining innovatsion faoliyatida texnologik kompetensiyaning rolini oldindan belgilab beradi.

Texnologik kompetentlik – bu yangi maktabgacha ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish, ularni loyihalash va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tarqatishga e'tiborini o'z ichiga olgan shaxsning individual va kasbiy etikasi sanaladi.

Innovatsion faoliyat esa tarbiyachining texnologik kompetensiyasini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, chunki innovatsion jarayon texnologik tarkibiy qismlar bilan bog'liq bo'lgan yangilikni yaratish, uni amaliyotga tadbiq etish va innovatsiyalarni tarqatish faoliyatini o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim muhiti sharoitida o'quv, ilmiy, kasbiy va boshqa ma'lumotlar bilan ishlashda qo'llaniladigan texnologiyalar alohida o'rin egallaydi. Bu axborot texnologiyalarining maktabgacha ta'lim faoliyati sifatini oshirish vositasi sifatidagi dolzarbligini ifodalaydi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning eng ommabop yo'llaridan biri axborot texnologiyalari orqali tashkil etilayotgan qo'shimcha ta'limdir.

Tarbiyachilarning individual o'ziga xosligini tushunish yo'li ularning tipologik o'ziga xosligini o'rganish, umumiylikning alohida ko'rinishi sifatida yotadi. Ilm-fanda mavjud bo'lgan shaxsning deyarli har bir nazariyasi taxmin qiladi, turli amaliy va tadqiqot muammolarini hal qilishda yordam beradigan turlarni ajratish imkoniyati yuzaga keladi.

https://wordlyknowledge.uz

Tarbiyachilar malaka oshirishning xilma-xilligi, puxtaligi va davomiyligiga qaramay, ushbu muammoga yagona yondashuv shakllanmay kelmoqda.

Tarbiyachilarning texnologik kompetentligini shakllantirishda ta'lim olish, muayyan nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ijitimoiy ehtiyojlarning yuzaga kelishi; ta'lim olish, muayyan nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan rag'batning uyg'onishi; tarbiyachilarning o'quv-bilish faoliyati mazmunini belgilash; tarbiyachilarning o'quv-bilish faoliyatini boshqarish hisobiga amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida ro'y bergan o'zgarishlar o'qitishga texnologik yondashish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Maktabgacha ta'lim kasbi mutaxassislari yangi ta'lim talablariga javob berishi kerak. Bo'lajak pedagog, eng avvalo, pedagogik madaniyat va pedagogik tafakkurga ega, bilimli bo'lib shakllanishi kerak. Pedagogika kollejlarida maktabgacha ta'lim ixtisosligi bo'yicha o'quvchilar tayyorlashda shaxs va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lim jarayoni olib boriladi. Umuman pedagogika kolleji o'quvchilari, xususan, maktabgacha ta'lim ixtisosligi o'quvchilarining uslubiy madaniyatini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun innovatsion ta'lim texnologiyalardan foydalaniladi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan va barcha sub'ektlarining pedagogik madaniyatini, shu jumladan o'quvchilarning metodik madaniyatini va texnologik kompetentligini shakllantirishga qaratilgan tashkil etilgan ilmiy-metodik ishlarga asoslanadi.

Shu bilan birga tarbiyachining texnologik kompetentligini shakllanishida pedagogik mahorta ham muhim vazifani bajaradi. Pedagogik mahorat bu- nazariy bilimlarni emas, balki aniq faoliyatni ko'rsatadi. Pedagogik adabiyotlarda pedagogik mahorat turlicha talqin qilinadi. Pedagogik mahorat kasbiy ko'nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi, shaxsning kasbiy sifatlari, san'at darajasidagi mahorat, pedagogik mohirlik, san'at va bilimdonlik deb ta'riflanadi. Pedagogik mahorat pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish (A.S.Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlarining sintezidir. Demak, pedagogik mahoratni doimiy ravishda mukammalashib boruvchi, har bir pedagog uchun qulay bo'lgan ta'lim-tarbiya berish san'ati, deyishimiz mumkin. Shuningdek, pedagogik mahorat pedagogik faoliyatning eng yuqori darajasi, deb tavsiflanadi. Mahorat pedagogik faoliyatning eng yuqori cho'qqisi bo'lib, muayyan vaqt mobaynida samaraga erishishdir. Pedagogik mahorat tarbiyachi shaxsining o'ziga xos xususiyatlar majmui bo'lib, kasbiy faoliyatning mustaqil tashkil etishni ta'minlovchi, refleks asosida amalga oshiruvchi jarayon hisoblanadi. Pedagogik mahorat tarbiyachining mukammal ijodiy kasbiy vazifasini bajarish san'atidir. Har bir ta'lim oluvchiga shaxs sifatida shakllanishi uchun ijtimoiy-psixologik sharoit yaratish, aqliy rivojlanishini yuqori darajada ta'minlash, ularda odob-axloq sifatlarini tarbiyalash va ma'naviy jihatdan boyitishdan iborat. Mahorat va san'at pedagogning ta'lim oluvchini shaxs sifatida har tomonlama tarbiyalash ko'nikmasi hisoblanadi. Pedagogik mahorat har bir shaxsning rivojlanishidagi ma'naviy muhit, uning cho'qqilarni zabt etish ruhini o'zida mujassamlashtirib, o'zining «MEN»ligini ko'rsatib, insoniyat qadriyatidagi kuchlarni yig'ib, o'zining yolg'iz emasligini his qilibgina qolmasdan, ma'naviy boy bo'lishni ham ta'minlaydi. Pedagog olimlar pedagogik mahorat tushunchasini tavsiflar ekanlar, pedagogik nazariya asosini dastlab mahorat, tarbiyachi pedagoglar tayyorlashda esa ko'nikma va malaka tizimini qat'iy ravishda shakllantirishni tavsiya etadilar. Tarbiya berish jarayonini pedagogik mahorat darajasida amalga oshirish lozim.

Shuningdek bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ kompetentlikni tarkib toptirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning pedagogik maqsadlari aks etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari talaba-yoshlar, bo'lajak tarbiyachilarning:

- mustaqil fikrlashini;
- ma'naviy-estetik tarbiyasini;

https://wordlyknowledge.uz

- kommunikativ qobiliyatini;
- optimal qaror qabul qilish malakasini;
- axborot madaniyatini rivojlanishini ta'minlaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtiradi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish talaba-yoshlar, bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantiradi va faollashtiradi.

Har sohada, yo'nalishda kommunikatsiya o'ziga xos jihatlarni aks ettiradi, namoyon bo'ladi. Lekin barchasidagi asosiy birlamchi vazifa – o'zaro muloqot va bog'liqlikni yo'lga qo'yish bo'lganligi sababli ham fanlar predmetidan kelib chiqadigan tabiat, borliq, jamiyat, insonning o'zaro hamkorlikda bir-biri bilan bog'liq holda tasavvurga namoyon bo'lishi va reallikka aylanib borishi bilan yuzaga keladi. Shu sababli ham kommunikatsiya o'z ichiga o'ziga xos murakkab tarkibiy qismlarni qamrab olgan jarayon sifatida tadqiq qilinadi.

Muloqot (kommunikatsiya) – bu insonning o'zaro munosabatlar va hamkorlik sharoitida yashash uslubidir. Muloqot jarayonida insonlar ma'lumot –fikr, g'oya va tuyg'ular almashishadi, shaxs faol muloqoti orqali kommunikativ qobiliyati shakllanib, yetuklikka erishadi. Shunday ekan, muloqot orqali ta'sir etishda muloqotga kirishish zarur.

O'qituvchi bo'lajak tarbiyachiga biror-bir narsani o'rgata olishi uchun ular bilan albatta muloqotga kirishi shart. Demak shunday xulosalarga kelamizki, hozirgi kunda kommunikatsiyasiz insonlarning rivojlanishini tasavvur eta olmaymiz. Zero, bugungi zamonaviy dunyo qiyofasini ham kommunikatsiyasiz his etish qiyin bo'lib bormoqda.

Zamonaviy, bilimli va pedagogik kompetentligi yuqori bo'lgan tarbiyachi universal darajadagi qobiliyatga ega bo'lishi talab etiladi. Albatta tarbiyachidan bugun talab etiladigan yana bir muhim jihat o'zi tarbiyalayotgan tarbiyalanuvchilarda ixtirochilik, kashfiyotchilik ko'nikmalarini shakllantirishi muhimdir. Chunki zamon bilan hamnafas bo'lish jamiyat uchun, davlat uchun bo'lajak mutaxassislarni yetishtirib berish bugungi maktabgacha ta'limning olididagi ulkan vazifalardan biridir. Shu bosidan tarbiyachini texnologik kompetentligini shakllantirish barobarida ularda texnik va texnologik bilimlarini ham oshirib borish talab etiladi. Biz yuqorida aynan mana shu masalalar bo'yicha o'z mualliflik fikrlarimizni taklif va mulohazalarimizni bildirib, bizdan oldingi fikr mulohazalar bilan qiyosiy tahlil qildik.

Albatta ta'lim-tarbiya bir butun jarayon bo'lib, uni biror bir qismini to'ldirmasdan, sayqallantirmasdan, jahon tajribasidan o'tkazmasdan turib amaliyotga tatbiq etib bo'lmaydi. Bugun maktabgacha ta'lim oldiga qo'yilayotgan kechiktirib bo'lmas talablardan biri, zamonaviy kadrlarni davlatimiz taraqqiyoti uchun tayyorlab berishdan iboratdir. "Ilk Qadam" davlat o'quv dasturi va unda aks ettirilgan yangi innovatsion o'quv dasturlari aynan biz ta'kidlayotgan bo'lajak mutaxassislarni hayotga tayyorlab berishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ilk qadam o'quv dasturi T-2017 yil
2. R.Rasulov,Q.Mo'ydinov "Nutq madaniyati va notiqlik san'ati" o'quv qo'llanma, T-2010. 33-bet
3. Raxmonov A.B. "Kommunikatsiya va muloqot – pedagogik hamkorlik imkoniyatlari" "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali 2018 /4 soni 96- bet
4. Azizxodjaeva. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003. -64-b.
5. Djuraev R.,Tolipov O'. va boshqalar. Pedagogik atamalar lug'ati. – O'zbekiston Respublikasi FA «Fan» nashriyoti, 2008. 96-b.
6. Azizxodjaeva. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.- T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003. -166-b.

https://wordlyknowledge.uz